

## TARJIMA MUAMMOLARI: TASVIR VOSITALARINING TARJIMA JARAYONIDA MUQOBILLIK MUOMMOSI. PROSPER MERIMENING “MATEO FALCONE” ASARI TARJIMA VA TAHLILI ASOSIDA

**Axmedov X.A.**

O‘zDJTU Tarjimonlik fakulteti o‘qituvchisi

### ABSTRACT

Dans cet article, nous avons actuellement examiné la question la plus controversée de défense en termes de phraséologie qui sont également utilisés dans le domaine des études de la traduction comme la combinaison de mots étudiés le long du chemin consacré au problème de traduction.

**Mots clés:** l’expression, sinekdoxa, metafora, tag ma’no, so‘z tushib qolishi, mérite, attice, s’était attiré, la maquis, une grande réputation!, dangereux ennemi, Mako Falcone.

P. Merimening « Mateo Falcon » asarining qahramoni Korsika orolida bilib o‘tadi. Merime bu tarixiy shaxsga katta hurmat bilan qaraydi. Undagi g‘ayrioddiy ruhiy ruch, halollik, sindirib bo‘lmaydigan iroda va jasorat ato etadi.

Asarda M. Falkonning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, qo‘rqmaslik, halollik. Asardan shuni ko‘rishimiz mumkinki, uning qadimiy oilaga mansubligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. M.Falkon juda katta obro‘-e’tibor qozonishiga sabab bo‘lgan bunday ajoyib mahorat, qolaversa uni odamlar ham yaxshi do‘st deb bilishadi.

Le maquis est la patrie des bergers corses dde quiconque s’est brouille avec la justice.<sup>1</sup>

A.Qo‘chiboyev tomonidan berilgan tarjima variantida aslida, « “Maki”-Korsikalik cho‘ponlar bilan qonunga chap berib yurganlarning makoni <sup>2</sup>» deb tarjima qilingan, ammo biz tarjima variantimizni yanada sayqallash uchun « Maquis » so‘zini o‘zbek tilidagi tarjima variantimizda « chakalakzor » deb olishga qaror qildik.

Tarjima jarayonida biz yana shunday holatlarga duch keldikki :

---

<sup>1</sup>Prosper Mérimée (1803-1870) Nouvelles I Colomba – Mateo Falcone.

<sup>2</sup> АБДУМУРОД КЎЧИБОЕВ БИЛВОСИТА ВА БЕВОСИТА ТАРЖИМА ТАКЛИЛИ САМАРЉАНД-2006. Услужий лъўлланма. СамДЧТИ нашриёти. СамарЉанд: 2006, 85 бет.

Différents espèces d'arbre et d'arbrisseaux le composent mélees et confondues comme il plait à Dieu.

Ushbu jumlaning biz quyidagicha tarjima qildik :

Allohmimh xohish irodasi bilan turli xil daraxt va butalar aralashib ketib har xil bo'lib o'sib ketgan.

Ushbu jumlaning biz quyidagicha tarjima qildik : Allohning xohish va irodasi bilan turli xil daraxt va butalar aralashib ketib har xil bo'lib o'sib ketgan.

Tarjima jarayonida ushbu jumladagi ba'zi bir so'z qoldirildi.« Différents espèces d'arbre et d'arbrisseaux » jumlasini « har xil daraxt va butalar » deb olgan bo'lsak, « comme il plait à Dieu » - « Allohning xohish irodasi bilan » deb tarjima qildik. « Dieu » so'zi Olloh, Hudo" ma'nolarini anglatadi. Jumla tarjimasida leksik transformatsiyalar aslyatda ifodalagan stilistik bo'yoqdorligini "d'arbrisseaux" so'zi o'zida saqlab qolgan, lekin « mélees et confondues » so'zlari aslyatda ifodalagan stilistik bo'yoqdorligini saqlab qola olmagan. Ya'ni ushbu jumlaning tarjima variantimizda « mélees et confondues » so'zlarini “aralash-quralash” tarzida tarjima qilganmiz. Aslyat, tarjima lug'atlarda mélees-aralash, confondues so'zi esa chalkash tarzida tarjima qilingan.

Mateo n'aurait jamais tiré sur un mouflon avec des chevrotines; mais à cent vingt pas, il l'abattait d'une balle dans la tête ou dans l'épaule à son choix <sup>1</sup>(p.14).

Bu jumlaning A. Ko'chiboyev aslida, « Mateo olqor ovlaganda hech qachon sochma o'q ishlatmasdi, biroq uni 120 qadam naridan istasa boshidan istasa ko'krigidan otib yer tishlatardi », ded tarjima qilgan. Biz esa bu jumlaning, « Mateo birgina o'q bilan 120 chaqirim naridan turib tog' echkisini xohlasa boshidan, xohlasa ko'krigidan otib yer tishlatardi », deb tarjima qildik.

Ushbu asarni tarjima qilish jarayonida biz bundan tashqari yana snekdoxa, metafora, tag ma'no, tag ma'nolardan keng qo'lladik.

Le fils n'avait que dix ans, mais il annonçait déjà d'heureuses dispositions.

A. Ko'chiboyev tomonidan berilgan tarjimada variantida aslida: “Ögli endi o'nga kirgan, lekin bo'laigan bola ekani hozirdanoq ko'rinib turibdi”, deb tarjima qilingan ammo biz tarjimamizni yanada badiiyyoq sayqallash maqsadida “Bo'ladigan bola boshidan ma'lum deganlaridek o'g'liendigina o'n yoshni qarshilagan bo'lsada tol'eyi balandligi ko'rinib turardi”, deb tarjima qildik.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki: Asardagi Mateo Falkone shunday obrazki, barchaga hushmuomala, barchaga yordam qo'lini cho'zadigan, ammo unga

<sup>1</sup> АБДУМУРОД КЎЧИБОЕВ БИЛВОСИТА ВА БЕВОСИТА ТАРЖИМА ТАХЛИЛИ САМАРҚАНД-2006. Услубий қўлланма. СамДЧТИ нашриёти. Самарқанд: 2006,

yomonlik qiluvchi barcha dushmanlarini va hattoki oila a'zolarini ham hiyonat qilishiga toqat qila olmaydigan mag'rur odam haqidagi hikoyadir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Prosper Mérimée (1803-1870) Nouvelles I Colomba – Mateo Falcone. Cet ouvrage est le 40ème publié dans la collection À tous les vents par la Bibliothèque électronique du Québec. La Bibliothèque électronique du Québec est la propriété exclusive de Jean-Yves Dupuis.

2. АБДУМУРОД КЎЧИБОЕВ БИЛВОСИТА ВА БЕВОСИТА ТАРЖИМА ТАҲЛИЛИ САМАРҚАНД-2006. Услубий кўлланма. СамДЧТИ нашриёти. Самарқанд: 2006, 85 бет.